

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI**



**IQTISODIYOT TARMOQLARIDA KAMIDA BESH YIL ISH STAJIGA  
EGA BO'LGAN FUQAROLARNI QABUL  
QILISH BO'YICHA**

**BAHOLASH MEZONI**

(Filial Kengashining 11-son 06.07.2022 Qarori bilan tasdiqlangan)

**QABUL BO'YICHA TA'LIM YO'NALISHLARI (Masofaviy)**

<b>Ta'lif yo'nalishi kodi</b>	<b>Ta'lif yo'nalishi nomi</b>
60610300	Kompyuter injiniringi
60610600	Telekommunikatsiya texnologiyalari
60410100	Iqtisodiyot
60610200	Axborot xavfsizligi (sohalar bo'yicha)

**Samarqand - 2025**

## **1-bob. Umumiy qoidalar**

**1.** Ushbu baholash me’zoni iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo‘lgan fuqarolarni sirtqi va kechki ta’lim shakliga kirish imtihonlarisiz, suhbat natijalariga ko‘ra tabaqlashtirilgan to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish tartibini belgilaydi.

Bunda, o‘qishga qabul qilish tegishli ish beruvchi vazirlik, idora va yirik xo‘jalik birlashmalarining tavsiyanomasi asosida kamida besh yil ish stajiga ega bo‘lgan xodimlar (keyingi o‘rinlarda — tavsiyanomaga ega bo‘lgan abituriyentlar) hisobidan, keyinchalik ushbu tizimda besh yil ishlab berish sharti bilan ish faoliyatiga mos bo‘lgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat natijalariga asosan amalga oshiriladi.

Mazkur baholash me’zoni oliy harbiy va harbiylashtirilgan ta’lim muassasalariga, O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan xorijiy va nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari hamda ularning filiallariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

**2.** Kamida besh yil ish stajiga ega bo‘lgan fuqarolarga sirtqi va kechki ta’lim shakliga suhbat natijalariga ko‘ra tabaqlashtirilgan to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga kirishi uchun “Iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo‘lgan fuqarolarni sirtqi va kechki ta’lim shakliga suhbat natijalariga ko‘ra tabaqlashtirilgan to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida” Nizomga 1-ilovada keltirilgan namunaviy shaklga muvofiq tavsiyanoma beruvchi vazirlik, idora va yirik xo‘jalik birlashmalari ro‘yxati hamda tavsiyanomaga ega bo‘lgan abituriyentlar uchun tabaqlashtirilgan to‘lov-kontrakt miqdorlari har yili 1-iyulgacha O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasi (keyingi o‘rinlarda — Davlat komissiyasi) tomonidan tasdiqlanadi hamda ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qilinadi.

**3.** Iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo‘lgan fuqarolarni sirtqi va kechki ta’lim shakliga suhbat natijalariga ko‘ra tabaqlashtirilgan to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish “Iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo‘lgan fuqarolarni sirtqi va kechki ta’lim shakliga suhbat natijalariga ko‘ra tabaqlashtirilgan to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida” Nizomga 2-ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

## **2-bob. Suhbat jarayonini o‘tkazish**

**4.** Oliy ta’lim muassasasi qabul komissiyasi raisi tomonidan tavsiyanomaga ega bo‘lgan abituriyentlar bilan suhbat o‘tkazish bo‘yicha alohida Suhbat komissiyasi tashkil etiladi.

Suhbat komissiyasi 7 nafardan kam bo‘lmagan tarkibda tuziladi va uning tarkibiga soha bo‘yicha yuqori malakali professor-o‘qituvchilar, soha mutaxassislari hamda ish beruvchi tashkilotlar va oliy ta’lim muassasasi bo‘ysunuvi bo‘yicha vazirlik va idoralardan vakillar kiritiladi.

**5.** Suhbat komissiyasi tomonidan tavsiyanomaga ega bo‘lgan abituriyentning ish faoliyati u hujjat topshirgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga mos kelishi imtihon boshlanishidan 10 kun avval aniqlanadi.

Tavsiyanomaga ega bo‘lgan abituriyent tanlagan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi uning ish faoliyatiga mos emas deb topilgan taqdirda, u imtihonga qo‘yilmaydi va oliy ta’lim muassasasi bu haqda ish beruvchini xabardor qiladi.

Bunda:

abitrentning arizasiga muvofiq tavsiyanoma bergen vazirlik, idora yoki yirik xo‘jalik birlashmasining murojaati asosida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan xodimning ish faoliyatiga mos bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha suhbat jarayonida ishtirot etishga ruxsat beriladi;

bakalavriat ta’lim yo‘nalishini o‘zgartirishga ruxsat berilgan abituriyentlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining murojaatiga asosan Davlat test markazi tomonidan maxsus elektron tizimga kiritiladi.

**6.** Tavsiyanomaga ega bo‘lgan abituriyentlar bilan suhbat jarayoni to‘liq videokuzatuv ostida o‘tkaziladi va jarayonlar kuzatuvchilar uchun ajratilgan alohida kutish joyiga onlayn translatsiya qilib boriladi.

Suhbat jarayoni to‘liq videokuzatuv ostida o‘tkazilishi va videoyozuvlarning kamida uch yil oliy ta’lim muassasasida saqlanishini ta’minlash mas’uliyati shaxsan oliy ta’lim muassasasi rektori (direktori) zimmasiga yuklanadi.

7. Suhbat jarayoni har yili 20-avgustdan 30-avgustgacha, oliy ta’lim muassasasi tomonidan belgilangan muddatda, Suhbat komissiyasi tarkibining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda o‘tkaziladi.

Suhbat o‘tkazish dasturi oliy ta’lim muassasasi tomonidan ishlab chiqiladi va oliy ta’lim muassasasi kengashi qarori bilan tasdiqlanadi.

Suhbat o‘tkazish jadvali oliy ta’lim muassasasi rasmiy veb-saytida suhbat o‘tkazilishidan kamida 5 kun avval joylashtiriladi.

Suhbat jarayoniga jamoatchilik vakillari ham xolis kuzatuvchi sifatida jalb etilishi mumkin.

8. Uzrli sabablarga ko‘ra (sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra, belgilangan shakldagi tibbiy xulosa asosida) suhbatga kelmagan abituriyentlar uchun takroriy suhbat muddati oliy ta’lim muassasasi tomonidan belgilanadi hamda oliy ta’lim muassasasining rasmiy veb-saytida takroriy suhbat o‘tkazilishidan kamida 5 kun avval e’lon qilinadi.

9. Suhbat jarayonida abituriyentlarning har biriga quyidagi mavzular bo‘yicha bittadan jami to‘rtta savol beriladi:

mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati va ahamiyati; belgilangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishini tanlashdan asosiy maqsad;

belgilangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga mos mehnat faoliyati davomida erishgan yutuq va natijalari;

belgilangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi sohasida bilim va kasbiy ko‘nikmalarning mavjudligi.

Har bir savolga 25 balldan ajratilib, jami to‘plash mumkin bo‘lgan eng yuqori ball 100 ballni tashkil etadi.

10. Savollar oliy ta’lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, qabul komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

11. Muayyan ta’lim yo‘nalishi (guruh) bo‘yicha suhbat jarayoni yakunlangach, Suhbat komissiyasi a’zolari tomonidan qo‘yilgan ballar hisoblab chiqiladi va Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadigan qaydnomaga kiritib boriladi.

Muayyan ta’lim yo‘nalishi (guruh) bo‘yicha o‘tkazilgan suhbat natijalariga ko‘ra suhbatdan o‘tganlar ro‘yxati shu kunning o‘zida abituriyentlarga o‘qib eshittiriladi.

12. Oliy ta’lim muassasasida suhbatlar o‘tkazilishi davrida belgilangan tartibda appellatsiya shikoyatlarini ko‘rib chiqish uchun appellatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Appellatsiya shikoyatlari suhbat natijalari e’lon qilingan vaqtidan boshlab 24 soat ichida qabul qilinadi va appellatsiya komissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqiladi.

Appellatsiya komissiyasi tarkibiga qabul komissiyasi faoliyatida ishtirok etmagan oliy ta’lim muassasasi xodimlari orasidan komissiya raisi va to‘rt nafar a’zo kiritiladi.

Abituriyent appellatsiyani ko‘rib chiqishda ishtirok etishi mumkin.

Appellatsiya komissiyasi abituriyentning appellatsiyasini ko‘rib chiqib, uning natijasi bo‘yicha tegishli qaror qabul qiladi hamda uning qabul komissiyasi va abituriyentga yetkazilishini ta’minlaydi.

13. Suhbat natijalariga ko‘ra talabalikka tavsiya etilganlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar natijalar e’lon qilingan kundan boshlab uch kun muddatda oliy ta’lim muassasasi rektori (direktori) tomonidan bo‘ysunuvi bo‘yicha vazirlik, idora va yirik xo‘jalik birlashmasiga taqdim etiladi.

14. Suhbat komissiyasining suhbat natijalarini qayd etish hamda suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varaqlari uch yil oliy ta’lim muassasasida saqlanadi.

### 3-bob. Suhbat jarayoni tartibi

1. Yakka tartibdagisi suhbat uchun savollar Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali qabul komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, qabul komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

## **2. Suhbat jarayonida bitiruvchilarning har biriga quyidagi mavzular bo'yicha bittadan jami to'rtta savol beriladi:**

- mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish;
- bakalavriat ta'lif yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish);
- shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darjasи, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishslash va ijodkorlik qobiliyatları);
- tanlangan bakalavriat ta'lif yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi.

3. Suhbatda ishtirok etish uchun talabgor suhbat komissiyasi tomonidan oldindan tasdiqlab qo'yilgan biletlardan birini ixtiyoriy ravishda tortadi (3-ilovaga asosan). Tanlangan biletning raqamini Suhbat komissiyasiga eshittiradi. Suhbat komissiyasi talabgorga suhbatga tayyorlanish uchun 10 minut vaqt beradi. Vaqt yakunlanganidan so'ng talabgor suhbatdan o'tadi.

4. Suhbat jarayonida Suhbat komissiyasining har bir a'zosiga ushbu Mezonning **1-ilovasiga** muvofiq namunaviy shakldagi bitiruvchining suhbat natijalarini qayd etish varag'i (keyingi o'rnlarda — suhbat natijalarini qayd etish varag'i) beriladi.

Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan suhbat natijalarini qayd etish varag'iga har bir bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbat natijasiga ko'ra tegishli ballar belgilab boriladi va imzolanadi.

5. Muayyan ta'lif yo'nalishi (guruh) bo'yicha suhbat jarayoni yakunlangach Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan to'ldirilgan suhbat natijalarini qayd etish varaqlaridagi ballar qo'shib jamalanadi hamda komissiya a'zolari soniga nisbatan o'rtacha ball hisoblab chiqiladi va shu asosida ushbu Mezonning 2-ilovasiga muvofiq namunaviy shakldagi bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i (keyingi o'rnlarda — suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i) to'ldirilib, Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Talabgor tomonidan jami to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ball 100 ballni tashkil etadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan qaydnomaga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning o'rtachasi 55 balldan yuqori bo'lganda abituriyent suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

Muayyan ta'lif yo'nalishi (guruh) bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijalariga ko'ra suhbatdan o'tganlar ro'yxati shu kunning o'zida abituriyentlarga o'qib eshittiriladi.

6. Ikkinchi va undan keyingi ta'lilda o'qish uchun talabalikka tavsiya etilgan shaxslar bilan oliv ta'lif muassasasi o'rtasida shartnomalar rasmiylashtiriladi.

7. Suhbat komissiyasi tomonidan talabgorlarni baholash mezonlari quyidagicha taqsimlanadi

<b>№</b>	<b>Savollik</b>	<b>Ball</b>
<b>1-savol. Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish</b>		
1.	Soha bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni tushunish darjasи	10 ball
2.	Soha bo'yicha islohotlarga munosabati	10 ball
3.	Sohani rivojlantirish bo'yicha islohotlarga taklif va tavsiyalari	5 ball
<b>Jami</b>		<b>25 ball</b>
<b>2-savol. Bakalavriat ta'lif yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish)</b>		
1.	Bakalavriatning mazkur yo'nalishini tanlashdan maqsadi va kelajak rejali	10 ball

2.	Tanlagan kasbini jamiyatga va davlat rivojlanishiga ta'sirini tushunishi	10 ball
3.	Bu kasb orqali yuqori darajadagi muvaffaqiyatga erishgan mutaxassislarining bilishi	5 ball
<b>Jami</b>		<b>25 ball</b>
<b>3-savol. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarini hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari)</b>		
<b>Jami</b>		<b>25 ball</b>
<b>4-savol. Tanlangan bakalavriat ta'lif yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarining mavjudligi</b>		
1.	Berilgan savolning mazmun mohiyatini tushuntirib berishi	20 ball
2.	Mazkur sohada ish tajribasining mavjudligi	5 ball
<b>Jami</b>		<b>25 ball</b>

#### **4-bob. Apellyatsiya berish tartibi**

8. Suhbatlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.
9. Apellyatsiya shikoyatlari suhbat natijalari e'lon qilingan vaqtidan boshlab 24 soat ichida oliy ta'lif muassasasida to'g'ridan-to'g'ri yozma shaklda yoki Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn shaklda qabul qilinadi va appelyatsiya komissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo'lgan muddatda videoyozuv asosida ko'rib chiqiladi.

#### **5-bob. Yakunlovchi qoidalar**

10. Mazkur baholash mezonini qo'llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.
11. Ushbu baholash mezoni talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

1-ilova

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
Samarqand filialiga iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo‘lgan  
fuqarolarni o‘qishga kirish imtihonlaridagi suhbat natijalarini qayd etish varag‘i

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI**  
(oliy ta’lim muassasasi nomi)

(ta’lim yo‘nalishi nomi)

(ta’lim shakli)

(ta’lim tili)

(sana)

T/r	Bitiruvchining F.I.O.	Bitiruvchiga qo‘yilgan ball					Suhbat komissiyasi a’zosining imzosi
		Jami	1-savol	2-savol	3-savol	4-savol	
1.							
2.							
3.							
4.							
...	...	...	...	...	...	...	...

Suhbat komissiyasi a’zosi: \_\_\_\_\_  
(F.I.Sh) \_\_\_\_\_ (imzo)

2-ilova

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
Samarqand filialiga iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo‘lgan  
fuqarolarni o‘qishga kirish imtihonlarida o‘tkazilgan suhbatning yakuniy natijalarini  
qayd etish varag‘i

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI**  
(oliv ta’lim muassasasi nomi)

(ta’lim yo‘nalishi nomi)

(ta’lim shakli)

(ta’lim tili)

(sana)

T/r	Bitiruvchining F.I.O.	Komissiya a’zolari soni	Jami to‘plagan bali	O‘rtacha bali
1.				
2.				
3.				
4.				
...	...	...	...	...

Suhbat komissiyasi raisi: \_\_\_\_\_  
(F.I.Sh) \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_

Suhbat komissiyasi a’zolari: \_\_\_\_\_  
(F.I.Sh) \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ (F.I.Sh) \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ (F.I.Sh) \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ (F.I.Sh) \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ (F.I.Sh) \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ (F.I.Sh) \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_